

## Yoshlar haq-huquqlarini ta'minlash – barqaror va inklyuziv rivojlanish sari muhim qadamdir



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida dunyoda barqaror va uzluksiz taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan qator muhim tashabbuslar ilgari surdi. Ular qatorida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani qabul qilish taklifi alohida o'rin tutadi.**

Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish va qabul qilish g'oyasi ilk bor O'zbekiston Prezidenti tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentyabrda bo'lib o'tgan 72-sessiyasida ilgari surilgan. Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismi, taraqqiyot katalizatori hamda o'zgarishlarga undovchi katta kuchdir. Shu bois O'zbekiston Prezidenti ushbu masalaga doimiy e'tibor qaratib kelmoqda.

Bugun dunyo aholisining ikki milliarddan ortig'ini aynan yoshlar tashkil qiladi. Biroq hanzugacha yoshlarga oid xalqaro darajadagi dolzarb muammolarni samarali yechishga imkon beradigan xalqaro huquqiy hujjatlar mavjud emas.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globalizatsiya jarayonlari yoshlar huquqlarini himoya qilish, shu jumladan ularning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquq va manfaatlarini ta'minlashga oid mexanizmlarni ishlab chiqishga undamoqda.

Ayni shu omilning o'zi ham Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani qabul qilishni taqozo etadi. Ushbu hujjat bugungi globalizatsiya va AKT tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan sharoitda umumjahon yoshlar siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan, unifikatsiyalangan xalqaro-huquqiy hujjat sifatida xizmat qilishi kutilmoqda.

Boz ustiga koronavirus pandemiyasi sabab dunyoda, ayniqsa yoshlar orasida ishsizlik darajasini oshib ketdi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilda dunyo bo'ylab ish joylari 6,7%ga qisqaradi, bu 295 million kishi ish joyidan mahrum bo'ladi, degani. Ularning 70 millionidan ortig'ini esa 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qilishi muammoning qay darajada dolzarb ekanini ko'rsatadi. Mehnat qilayotgan yoshlarning 40%ga yaqini qashshoqlik darajasida umr kechirmoqda.

Mintaqamiz - Markaziy Osiyo dunyoning eng yosh mintaqasi hisoblanib, bu yerda aholining o'rtacha yoshi 28,6ga teng. Mintaqa aholisining qariyb yarmi O'zbekistonda istiqomat qiladi, 30 yoshgacha bo'lgan yigit va qizlar esa mamlakatimiz aholisining deyarli 60%ni tashkil qiladi. Afsuski, hozirgi kunda ularning 732 mingga yaqishi ishsiz hisoblanadi.

Koronavirus pandemiyasi oqibatida vujudga kelayotgan murakkab vaziyatda Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning qabul qilinishi nafaqat O'zbekiston, Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash kerakki, Konvensiya loyihasi ustida ikki yildan ortik vaqt mobaynida ish olib borildi. Bunda ushbu sohadagi mintaqaviy va xorijiy mamlakatlarning eng yaxshi tajribalari o'rganildi. Konvensiya loyihasi qator tadbirlarda muhokama qilindi.

Xususan, O'zbekistonda so'nggi yillarda bu borada izchil ishlar amalga oshiril kelinmoqda. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Qonun qabul qilindi. 30-iyun mamlakatimizda Yoshlar kuni deb e'lon qilindi.

"Mard o'g'lon" Davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. Beshta tashabbus va O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini yana-da rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi amalga oshirib kelinmoqda.

Yoshlar ishlari agentligi hamda Yoshlar parlamenti tashkil etildi. O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasiga asos solingan, uning vakillari dunyoning 13 mamlakatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning qabul qilinishi yoshlar avlod rivojlanishining zamonaviy xalqaro modelini, shu jumladan aniq maqsadlar va o'lchov ko'rsatkichlarini shakllantirish, yoshlarning jamiyat hayotida to'liq, samarali va konstruktiv ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Adxambek RASHIDBEKOV,**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**huzuridagi SMTI bosh ilmiy xodimi**

**Manba**